

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2024

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№6 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-6>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамад

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамад

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Rashidova Manzura Bakhtiyorovna THE INFLUENCE OF CONFUCIAN TRADITIONS ON THE KOREAN LANGUAGE.....	5
2. Alisher Rustamov Abduhakimovich A SYSTEM OF EXERCISES AND TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF WRITTEN SPEECH SKILLS OF HIGH SCHOOL STUDENTS THROUGH PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS.....	10
3. Ziyayeva Kamola Ziyaiddinovna THE LINGUISTIC AND CULTURAL DIMENSIONS OF HUMOUR: A STUDY OF SPEECH GENRES AND THEIR ROLE IN COMMUNICATIN.....	15
4. Davlatova Xulkaroy Uktamovna, Botiova Valida Shuhrat qizi SPECIFIC ASPECTS OF SPEECH COMMUNICATION AND INTERNET COMMUNICATION.....	19
5. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	24
6. Pardayeva Iroda Mamayunusovna ALISHER NAVOIY IJODIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TASVIRI.....	29
7. Aliyeva Zebo Akram qizi MIRATIVLIK KATEGORIYASI GRAMMATIK KO‘RSATKICH SIFATIDA.....	35
8. Mirzayev Shukurullo Abduqodir o‘g‘li TOPIK II 53- YOZISH SAVOL TURLARI VA YOZISH USULLARI.....	41
9. Bayonkhanova Iroda Furkatovna KOREYS TILINI O‘RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	47
10. Hasanov Suhrob Shavkat ugli SYMBOLS AND ALLEGORIES IN THE PROSE OF ISAJON SULTAN.....	53
11. Улаш Нематович Бобоев МОДЕЛЬ СТРАТЕГИЙ ПЕРЕВОДА НА РУССКИЙ ЯЗЫК ШОК-ТЕЙМЕНТА В СМИ УЗБЕКИСТАНА И ФРАНЦИИ.....	60
12. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	65
13. Eshimova Sharofat Kenjaboyevna SINESTEZIYA - METAFORANING BIR TURI SIFATIDA.....	70
14. Umirzoqova Oynisa THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TEMPORAL CATEGORY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES.....	76
15. Alibekova Dilrabo Abdiraimovna COHISION OF NATURALISM, OPTIMISM AND REALISIM IN THE WORKS OF HECTOR MALOT AND THEODOR DREISER.....	83
16. Gulirukhsor Ruzikulova Gofur kizi A COMPARATIVE ANALYSIS OF FACE-RELATED IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK.....	88
17. Xalimova Firuza Rustamovna MATN DOIRASIDA BADIY KONSEPTNING SHAKLLANISHI.....	96
18. Xamidova Dilorom Olimjonovna LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA BADIY TILNING IFODALANISHI.....	102

19. Xaydarova Nigora Tuxtasunovna AYOL VA ERKAKLARNING MUHOQOT USULLARI.....	107
20. Shamshoda Rustamova O'SMIR BOLALAR NUTQIDAGI INNOVATSIYALAR VA ULARNING IFODALANISHI.....	112
21. Karshieva Shokhista Kholikul kizi SYNTAX AND SEMANTICS OF ERGATIVE CONSTRUCTIONS.....	119
22. Musayeva Shaxlo Kudratovna QISSALARDA IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRI VOQEALARI TASVIRINING QIYOSIY TAHLILI. (Nosir Fozilov asarlari misolida).....	125
23. N.J.Sulaymanova IJOBIY BAHO PRAGMATIK MAZMUNINI IFODALOVCHI NUTQIY AKTLAR.....	131
24. Azimbayeva Nargiza Tuxtamuradovna O'ZBEK VA FORS TILLARIDA XULQ-ATVORNI IFODALOVCHI LEKSIK KONSTRUKSIYALAR TASNIFI.....	135
25. Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna THE ROLE OF UZBEK AND ENGLISH PHRASEOLOGY IN CROSS-CULTURAL COMMUNICATION.....	139
26. Gulruxsor Xoliyorova TERMINOLOGIK TEZAVURSLARNING LINGVISTIK XOSLANISHI.....	143
27. Alisher Rustamov Abduhakimovich THE HISTORY OF TEACHING AND LEARNING ENGLISH WRITING SKILLS IN UZBEKISTAN (POST-SOVIET STATE). PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC APPROACH.....	149
28. Kubaeva Nafisa Alisher qizi UNLOCKING THE POWER OF IDIOMS: HOW FIGURATIVE LANGUAGE ENRICHES COMMUNICATION.....	154
29. Dilafro'z Amonova KOREYS ADABIYOTI TARIXIDA AYOLLAR IJODIYOTI.....	158
30. Obruyeva Gulchexra Xamrokulovna ATOQLI OTLARNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARKIBIDA APELLATIVIZATSIYAGA UCHRASHI...164	164
31. Esanova Maftuna Bahodirovna YUNON-LOTIN TIBBIYOT ATAMALARINING TARIXI VA ULARNING ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI O'RNI.....	168
32. Azimova Yulduz Baxtiyor qizi AVTOBIOGRAFIK DISKURSNING UMUMIY TAVSIFI.....	173
33. Maxmudova Dilshoda Kurbonbayevna KOMPOZITSION TASHKILLANISH VA PEYZAJ MODIFIKATSIYASI.....	177



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Azimova Yulduz Baxtiyor qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

AVTOBIOGRAFIK DISKURSNING UMUMIY TAVSIFI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15069232>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada avtobiografik diskursning asosiy xususiyatlari va janr o'ziga xosliklari tahlil etiladi. Avtobiografiya – bu muallifning o'z hayoti haqida yozgan hikoyasi bo'lib, unda shaxsiy tajriba, ichki dunyo va real hayotiy voqealar aks ettiriladi. Ushbu janrning muhim jihatlari sifatida muallif va qahramonning birligi, haqiqatga yaqinlik, xronologik ketma-ketlik, subyektiv yondashuv va badiiylik-realistik uslub uyg'unligi keltirilgan. Shuningdek, maqolada avtobiografiyaning ijtimoiy va madaniy kontekstni aks ettirishdagi ahamiyati yoritiladi. O'zbek adabiyotshunosligida avtobiografik janrni o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar ham keltirilgan. Ushbu maqola avtobiografiyaning adabiy jarayondagi o'rnini tushunish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: avtobiografiya, janr, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyat, diskurs, avtobiografik diskurs, lingvokulturologiya

Азимова Юлдуз Бахтиёр кизи

докторант Ташкентского государственного университета
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

ОБЩЕЕ ОПИСАНИЕ АВТОБЮГРАФИЧЕСКОГО ДИСКУРСА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются основные характеристики автобиографического дискурса и особенности жанра. Автобиография представляет собой повествование автора о собственной жизни, в котором отражены личный опыт, внутренний мир и реальные жизненные события. Среди ключевых черт этого жанра выделяются единство автора и героя, приближенность к реальности, хронологическая последовательность, субъективный подход, а также сочетание художественного и реалистического стилей. Кроме того, в статье рассматривается значение автобиографии в передаче социального и культурного контекста. Освещены научные исследования узбекских литературоведов, посвященные изучению автобиографического жанра. Данная статья является важным источником для понимания места автобиографии в литературном процессе.

Ключевые слова: автобиография, жанр, лингвистика, литературоведение, культура, дискурс, автобиографический дискурс, лингвокультурология.

Azimova Yulduz Baxtiyor qizi

a doctoral candidate at Alisher Navoiy Tashkent State

University of Uzbek Language and Literature.
General description of autobiographical discourse.

GENERAL DESCRIPTION OF AUTOBIOGRAPHICAL DISCOURSE

ANNOTATION

This article analyzes the main characteristics of autobiographical discourse and the distinctive features of the genre. Autobiography is a narrative in which the author recounts their own life, reflecting personal experiences, inner world, and real-life events. The key features of this genre include the unity of the author and the protagonist, proximity to reality, chronological sequence, subjective approach, and the combination of artistic and realistic styles. Additionally, the article explores the significance of autobiography in conveying social and cultural contexts. The research of Uzbek literary scholars dedicated to the study of the autobiographical genre is also highlighted, particularly the works of Dilmurod Qurbonov, Darmonoy Urayeva, and Dilrabo Quvvatova. This article serves as an important source for understanding the role of autobiography in the literary process.

Keywords: autobiography, genre, linguistics, literary studies, culture, discourse, autobiographical discourse, linguoculturology.

Avtobiografiya janri – bu shaxsning o‘z hayot yo‘lini o‘zi hikoya qiladigan adabiy janr bo‘lib, u muallifning xotiralari, tajribalari, his-tuyg‘ulari va shaxsiy hayotidagi muhim voqealarni o‘z ichiga oladi. Bu janrga oid matnlar badiiy, ilmiy yoki rasmiy uslubga xos shaklda bo‘lishi mumkin. Avtobiografiya janri o‘zining noyob jihatlari bilan boshqa adabiy janrlardan farq qiladi. Ushbu janrda muallif o‘z hayot yo‘lini o‘zi hikoya qilgani bois, u shaxsiy va subyektiv xususiyatlarga ega.

Quyida avtobiografiyaning asosiy o‘ziga xosliklari keltirilgan: muallif va qahramonning birligi: avtobiografiyada muallif va asar qahramoni aynan bir shaxs bo‘lib, asar bevosita muallifning hayotiy tajribalariga asoslanadi. Boshqa janrlardan farqli ravishda, avtobiografiyada real insonning o‘zi asosiy obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Keyingisi shaxsiy tajriba va ichki dunyoning aks etishi: bu janrda muallif faqat hayotiy voqealarni bayon qilish bilan cheklanmay, balki o‘z his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari, orzu-umidlari va psixologik holatini ham tasvirlaydi. Bu esa asarning individual xususiyat kasb etishiga olib keladi. Haqiqatga yaqinlik: avtobiografik asarlar, odatda, real hayotiy voqealarga asoslanadi. Muallif o‘z xotiralarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki badiiy shaklda qayta hikoya qiladi. Biroq, ba‘zan muallif o‘z hayotidagi ayrim epizodlarni bezab yoki umumlashtirib tasvirlashi ham mumkin. Xronologik ketma-ketlik bunda ko‘pchilik avtobiografik asarlar muallifning tug‘ilishidan boshlab, hayotining muhim bosqichlarini ketma-ketlikda yoritadi. Bu metod asar o‘quvchiga muallifning shaxsiy rivojlanish jarayonini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ijtimoiy va madaniy kontekst bu orqali avtobiografiya shaxsiy tajribalar bilan birga, muallif yashagan davrning ijtimoiy, siyosiy va madaniy muhitini ham aks ettiradi. Shu sababli, avtobiografik asarlar muayyan tarixiy davrni tushunishda ham muhim manba bo‘lishi mumkin. Subyektiv yondashuvda esa avtobiografiya muallifning shaxsiy qarashlari va his-tuyg‘ulariga asoslangan bo‘lib, unda voqealar muallifning o‘z dunyoqarashiga ko‘ra taqdim etiladi. Shu bois, bir xil voqea turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkin.

O‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘zgarish jarayoni bunda muallif avtobiografiyasida ko‘pincha o‘zining hayotidagi muhim qarorlar, xatolar, yutuqlar va shaxsiy o‘zgarishlari haqida fikr yuritadi. Bu esa asarning yanada chuqurroq mazmun kasb etishiga xizmat qiladi. Badiiylik va realistik uslub uyg‘unligi kabi jihatida esa ba‘zi avtobiografik asarlar oddiy xotiralarga asoslangan hujjatli shaklda yozilsa, boshqalari badiiy uslubda, jonli tasvirlar, dramatik epizodlar va obrazli ifodalar yordamida yoziladi. Shu bilan birga, avtobiografiya realizm bilan uyg‘unlashib, o‘quvchiga hayotning haqqoniyligini his qilish imkonini beradi. Avtobiografiya janri nafaqat shaxsiy xotiralar to‘plami, balki inson ruhiyati, davr ruhiyati va ijtimoiy-madaniy muhitni aks ettiruvchi muhim adabiy janrdir. U muallif hayotining muayyan bosqichlarini ochib berish bilan birga, o‘quvchiga hayotiy tajriba va ilhom baxsh etishi mumkin.

O'zbek tilshunosligiga va adabiyotshunosligiga o'zlarining avtobiografik janr xususidagi ilmiy ishlari bilan bir qancha olimlarimiz o'z hissalarini qo'shganlar. Ularning ilmiy ishlari quyidagilar:

Dilmurod Quronov: Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronovning ilmiy maqolalari to'plami "Adabiyot va badiiyat haqida" nomi bilan nashr etilgan. Ushbu to'plamda adabiyotshunoslikning turli dolzarb masalalari, jumladan, badiiy talqin, asar talqini, kompozitsion tafakkur, milliy adabiyotimizni tarixiy poetika asosida o'rganish kabi mavzular yoritilgan.

Darmonoy O'rayeva va Dilrabo Quvvatova: Ushbu mualliflar tomonidan "Jahon adabiyoti terminlarining izohli lug'ati" nomli o'quv qo'llanma tayyorlangan. Mazkur qo'llanma jahon adabiyotiga oid terminlarni izohlab, ularning mazmun-mohiyatini ochib beradi.

Olmosxon Abdurahmonova: Olimaning "Munozara janri tarixi va takomili" nomli maqolasi badiiy adabiyotda munozara janrining taraqqiy etish tadriji va takomiliga bag'ishlangan. Ushbu maqolada munozara so'zining ma'nosi va adabiyotshunoslikdagi o'rni haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Avtobiografik diskurs haqida to'xtalishdan oldin diskurs tushunchasi haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz kerak. Diskurs – bu tilshunoslik, falsafa, sotsiologiya va adabiyotshunoslikda keng qo'llaniladigan tushuncha bo'lib, u matn va nutqning muayyan kontekstda qanday shakllanishini, qanday ma'no kasb etishini va qanday tushunilishini o'rganadi. Diskurs oddiygina gapirish yoki yozish jarayoni emas, balki u ijtimoiy, madaniy, tarixiy va lingvistik omillar ta'sirida shakllanadi.

Diskursning asosiy jihatlari: til va kontekst bunda har qanday diskurs muayyan kontekstga bog'liq bo'lib, u nutq yoki matnning qanday talqin qilinishini belgilaydi. Ma'no hosil qilish jarayonida esa diskurs faqatgina so'z yoki jumalarning to'plami emas, balki ular orqali qanday ma'no hosil qilinishi jarayonini ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida ma'lum ijtimoiy va madaniy sharoitda shakllanadi. Masalan, siyosiy diskurs, ilmiy diskurs yoki diniy diskurs bir-biridan farqlanadi. Interaktivlik diskursi har doim auditoriya yoki tinglovchiga qaratilgan bo'lib, ularning munosabati va javob reaksiyasini inobatga oladi. Tuzilish va sathlar jihatidan tahlil qilinganda lingvistik nuqtai nazardan, diskurs fonetik, leksik, sintaktik va pragmatik jihatlardan tahlil qilinadi.

Diskursni quyidagi turlarga ajratamiz:

Siyosiy diskurs – siyosatchilar, davlat arboblari yoki ommaviy axborot vositalari tomonidan yaratiladigan nutq va matnlar.

Ilmiy diskurs – ilmiy maqolalar, tadqiqotlar va akademik nutqlarda qo'llaniladigan mantiqiy, aniq va tizimli ifodalar.

Adabiy diskurs – badiiy asarlar, she'riyat va dramaturgiya tili, unda badiiy tasvir vositalari va obrazlilik muhim rol o'ynaydi.

Hujjatli va huquqiy diskurs – qonunlar, rasmiy hujjatlar va normativ aktlar tilida qo'llaniladi.

Diniy diskurs – diniy matnlar va ularni tushuntirishga qaratilgan ma'ruzalar va risolalar.

Diskurs lingvistika, semiotika, falsafa va boshqa fanlar doirasida chuqur o'rganiladi. U inson nutqi va matnlarni qanday tushunishi, ularning jamiyatga qanday ta'sir qilishi haqida muhim ma'lumotlar beradi. Ushbu ilmiy ish jarayonida biz lingvistik jihatdan avtobiografik diskurslar tahliliga to'xtalamiz.

O'zbek avtobiografiyalarida milliy mentalitet, qadriyatlar va dunyoqarash kabilar aks ettiriladi. Bu orqali o'zbek madaniyatining o'ziga xos jihatlari yoritiladi. Jumladan avtobiografik diskurslar muallif nutqining subyektivligi, ekspressivligi va emotsionalligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Avtobiografik diskursning lingvomadaniy xususiyatlari mavzusi til va madaniyatning shaxsiy hikoyalar orqali qanday o'zaro ta'sir qilishini o'rganadi. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar mualliflarning til tajribalari, madaniy identifikatsiyasi va ularning avtobiografik yozuvlarida qanday aks etishini tahlil qiladi. Tilshunoslik avtobiografiyasi shaxsning til o'rganish tajribalarini, ko'p tillilik holatini va madaniy o'zgarishlarni o'z ichiga olgan shaxsiy hikoyadir. Bu turdagi avtobiografiyalar muallifning til va madaniyat bilan bog'liq shaxsiy tajribalarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Jahon tilshunosligida tilshunoslik avtobiografiyasini til markaziy o'rinni

egallagan shaxsiy hikoya sifatida ta'riflaydilar. Ushbu yondashuv orqali mualliflar o'zlarining til o'rganish jarayonlari va madaniy identifikatsiyalarini o'rganadilar.

Avtobiografik diskursda lingvomadaniy xususiyatlar. Avtobiografik diskursda lingvomadaniy xususiyatlar quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi: ko'p tillilik va madaniy o'zaro ta'sir. Ko'p tilli mualliflar o'z avtobiografiyalarida turli tillar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tasvirlaydilar. Bu jarayon ularning shaxsiy identifikatsiyasi va dunyoqarashiga ta'sir qiladi. Til va shaxsiy identifikatsiya: til o'rganish jarayoni shaxsning o'zini anglash va identifikatsiyasiga ta'sir qiladi. Tilshunoslik avtobiografiyalari orqali mualliflar o'zlarining til o'rganish tajribalari va bu jarayonning ularning shaxsiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilganini tahlil qiladilar. Bu esa ularning madaniy va ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Madaniy meros va til siyosati: avtobiografik asarlar mualliflarning madaniy merosi va til siyosati bilan bog'liq tajribalarini yoritadi. Bu asarlar orqali mualliflar til o'rganish jarayonida duch kelgan qiyinchiliklar, stereotiplar va til siyosatining ularning hayotiga ta'sirini o'rganadilar. Masalan, ba'zi tadqiqotlar til o'rganish avtobiografiyalarini tanqidiy pedagogik vosita sifatida qo'llashni taklif qiladi.

Avtobiografik diskursning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish til va madaniyatning shaxsiy tajribalar orqali qanday o'zaro ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi. Bu sohadagi tadqiqotlar mualliflarning til o'rganish jarayonlari, madaniy identifikatsiyalari va til siyosati bilan bog'liq tajribalarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Хомутова Т.Н. Научные парадигмы в лингвистике. Вестн. Челябин. гос. ун-та. № 35. Филология. Искусствоведение. Вып. 37, 2009. – С. 142-151.
2. Mills S. Discourse. The New Critical Idiom. Taylor & Francis e-Library, 2001. – Pp. 177.
3. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english>
4. Темнова Е. В. Современные подходы к изучению дискурса. Язык, сознание, коммуникация. Вып. 26. М., 2004. – С. 24-32.
5. Makdonnel D. Theories of Discourse. Oxford: Basil Blackwell, 1986. – Pp. 156.
6. Quronov D. Adabiyot va badiiyat haqida [About Literature and Artistic Creativity]. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.
7. O'rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti terminlarining izohli lug'ati [Explanatory Dictionary of World Literature Terms]. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020.
8. Abdurahmonova O. Munozara janri tarixi va takomili. Oltin bitiglar – Golden Scripts, 4(4), 2020., 39–61.
9. Abdullayeva G. Rasmiy matnlarning lingvopragmatik xususiyatlari: filol.fanlari.falsafa doktori(Phd) diss., 2019.
10. Yakubov F. "Diskurs" yoki matn tushunchasi haqida. Turkologiya, 1(1), 45–58., 2021.
11. Xakimbayeva O. K., Mardonov O. Tilshunoslikda siyosiy diskurs tushunchasi. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 1044–1046., 2023.
12. Krasnyx V.V. Этнолингвистика и лингвокультурология. Moskva: Gnozis., 2002.
13. Kubryakova Ye.S. Очерки по когнитивной лингвистике. Moskva: LKI., 2004.
14. Dobrosklonskaya T.G. Медиа лингвистика: Системный подход к изучению языка СМИ. Moskva: Flinta., 2008.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000